



QORAQALPOQ MUMTOZ ADABIYOTI VAKILLARINING IJTIMOYIY- AXLOQIY QARASHLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Ernazarova Sapura Keulimjaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti dotsent v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: ernazarovasapura3@gmail.com

Annotatsiya: maqola qoraqalpoq mumtoz adabiyoti vakillari Kunxo'ja, Berdaq va Ajiniyozning ijtimoiy-axloqiy qarashlari, shoirlar ijodida ilk falsafiy tafakkur, chuqur ma'noli hikmatli so'zlar, shoirlar ijodining asosi bo'lgan mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ilm-ma'rifatga intilish, xalq farovonligi uchun olib borilgan g'oyalarni yosh avlod orasida keng targ'ib-tashviq qilish zarurligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kunxo'ja, Berdaq va Ajiniyoz, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ilm-ma'rifat, xalq farovonligi.

Аннотация: В данной статье социально-этические взгляды представителей каракалпакской классической литературы Кунходжи, Бердаха и Аджиныяз, первое философское мышление в творчестве поэтов, мудрые слова с глубоким смыслом, трудолюбие, патриотизм, стремление к знаниям и просвещению, которые лежат в основе творчества поэтов, на благо народа о необходимости широкой пропаганды проводимых идей среди подрастающего поколения идет слово.

Ключевые слова: Кунходжа, Бердах и Аджиныяз, трудолюбие, патриотизм, знания, общественное благосостояние.

Annotation: The article describes the social and moral views of representatives of Karakalpak classical literature, including Kunkhoja, Berdak, and Ajiniyaz. It highlights the philosophical reflections in their poetry, their words of wisdom, and their emphasis on hard work, patriotism, and the pursuit of knowledge. The article also discusses the importance of promoting these values among the younger generation for the welfare of society.

Key words: Kunkhoja, Berdak, Ajiniyaz, hard work, patriotism, knowledge, public welfare.

XIX asr qoraqalpoq badiiy adabiyoti Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq singari buyuk mutafakkirlarni dunyoga keltirib, xalq donoligi bilan butun bir millat, xalq tarixini, milliy xususiyatlarini chuqur ma'noli yozma adabiy til vositasida har tomonlama tavsiflab bergan badiiy ijodiyotdir.

Shoirlarning ijodi qoraqalpoq xalq og'zaki ijodiyoti orqali ilgari surilgan ilk falsafiy tafakkuri, afsonalari, rivoyatlari, shajaralari, chuqur ma'noli hikmatli so'zlari, islom dini, Qur'oni Karim va Hadislar bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan. Mutafakkirlar insondagi ilm-ma'rifatga, uning inson va odamlar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishdagi hal qiluvchi rolga chuqur ishonishgan. Ular mutafakkir-ustozlar edilar, chunki har birining o'ziga xos shogirdlari bo'lgan. Shuning uchun ularning deyarli har qanday asarlaroda yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadigan mukammal g'oyalar, axloqiy



ko'rsatmalar, bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha tavsiyalar borligi aniq. Shu boisdan ham Qoraqalpoq xalqining og'zaki ijodga boy ekanligini, uning poetik ijodiyotga mohir xalq ekanligini ta'kidlab, XIX asrdagi qozoq olimi Cho'qon Valixanov: «Qoraqalpoqlar – sahrodagi eng birinchi shoirlar va qo'shiqchilar» – deb yozgan.

Buyuk shoirlarning boy ijodiy meroslariga qanchalik teran qaraganimiz sayin, ko'ngil qo'yib tadqiq qilganimiz sari ularning asarlarida tuganmas o'y-fikr xazinasining, alvon-alvon g'oyalar bilan his-tuyg'ularning yotganligini ko'rasiz.

Berdaq shoir o'zning har bir asarida XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning eng xarakterli nuqtalarini qalamga olib, tahlil qilgan. Ulardan tegishli xulosa chiqargan, ijtimoiy hayotning to'liq bahosini belgilab bergan, o'z davridagi yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodini ham, xalqning falsafiy, didaktik tafakkur tarzini ham mustahkam bog'langan dono fikrlari bilan to'la badiiy asarlar yaratdi.

Kunxo'ja Ibahim ug'li (1799-1880) qoraqalpoq mumtoz poeziyasining yozma adabiyot sifatida shakllanishiga va rivojlanishiga, qoraqalpoq xalqining ongining, ma'naviy hayotining yuksalishiga katta hissa qo'shib, qoraqalpoq mumtoz shoirlarining ustozlari, qoraqalpoq xalqining boshqa qo'shni bo'lib yashagan qardosh xalqlarning sevimli shoyiri sifatida xalq xurmatiga ega bo'ldi.

Shoir o'z qo'shiqlarida xalqni milliy birlikga, qoraqalpoq uruvlarining o'zaro birgalikda totuv yashashiga chaqirishining – xalqning haqiqat tilagi va hayotiy ideyalini bayon qiladi:

Xalqiga odil bulmasa,
Yig'laganga tasalli bermasa,
Xalq totganini totmasa,
Taxt egasi nimaga kerak? [2.40].

Kunxo'janing jamiyat qurilishi haqidagi siyosiy fikri shunday edi. U xonlarning, rahbarlarning oldida el, xalq bilan birga bo'lishni, odil bo'lishni, xalqning taqdirini o'ylashni talab qilib qo'yadi, odil padshoh orqali tenglikga, yaxshi hayot kechirishga erishish mumkin deb hisoblaydi.

Shoirning xalq bilan birga bo'lish g'oyasi uning «El bilan» qo'shig'ida ham juda ta'sirli tasvirlangan:

«Osmonga ucharsang bo'lsa qanoting,
Shod bularsang shodli bo'lsa elating,...» [3.12].

Kunxo'ja el, xalqni, adolatni qadrlash bilan birga, agar xalqni boshqargan padshoh, amaldorlar zolim bo'lsa xalqning kuni qayg'u bilan utadi deydi:

«Odamga qast qilib mehri kelmas,



Kim yomon, kim yaxshi farqini bilmas». [2.18].
deb ko'rsatadi.

Kunxo'janing ijtimoiy qarashi cheklangan xarakterge ega bo'lgani bilan o'z davri uchun juda katta ahamiyat kasb etadi.. U o'z ijodida xalqni og'ir kunga olib kelganlarning kimlar ekanligini tushuntirib berdi, xalqga uning jamiyatdagi o'rnini ochib berdi, xalqda o'z kuchini anglashga, ongini uyg'atishga yordam berdi.

Qoraqalpoq mumtoz adabiyoti vakillarining biri Berdaq G'arg'aboy ug'li (1827-1900) o'zning har bir asarida XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning eng xarakterli nuqtalarini qalamga olib, tahlil qilgan. Ulardan tegishli xulosa chiqargan, ijtimoiy hayotning to'liq bahosini belgilab bergan, o'z davridagi yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodini ham, xalqning falsafiy, didaktik tafakkur tarzini ham mustahkam bog'langan dono fikrlari bilan to'la badiiy asarlar yaratdi.

Berdag qoraqalpoq xalqining buyuk shoyiri, mutafakkir, filosof, tarixchi, baqshi-kompozitori va ma'rifatpari. S.P.Tolstovning ta'kidlaganidek, Berdaq «qoraqalpoqlarning birinchi tarixchisidir. Haqiqatan ham, Berdaq O'rta Osiyodagi juda buyuk shoirlarining biri». U o'z xalqining «Shajara»sini, tarixini yaratish uchun birinchi qadam qo'ygan donishmand [1.8].

Berdagning har bir asarida zolim podsholarni insofga va adolatga chaqirish, millat manfaatlarini himoya qilish uning ijodidagi asosiy g'oya bo'lgan. Chunki tenglik, adolat, insonparvarlik, erkinlik – butun insoniyat orzusidagi asriy eng aziz va yuksak tuyg'u. U «Tenglik topmay xo'rlik bilan, erki ketib zo'rlik bilan» - deb, adolatsizlikning xusumatdan vayronalik xislatini, zolimlik xarakterini yoritib, jamiyatda va insoniy munosabatlarda adolatsizlikni qoralagan[4.179].

Adolat, mutafakkirlar talqinida, hokimi mutlaq bo'lsa, insonning boshqa fazilatlarini adolatning xizmatkorlaridir. Borliq to'g'risidagi haqiqat qanchalik o'rganib borilgani sari adolat ham kamolga yeta boradi. Bunda adolat insonlar munosabatini aks ettirib, noma'lum tushuncha sifatida emas, balki ijtimoiy hayot bilan chambarchas aloqadorligidadir.

Berdagning axloqiy qarashlarida yaxshilik va yomonlik tushunchasi ham keng yoritiladi. U ushbu tushunchani juda keng ma'noda tushunib, u orqali yoshlarning xulq-odobi va yurish-turishini, axloqiy fazilatlarini baholaydi. Berdaq yomonlik odamlarning faqatgina o'ziga emas, balki boshqa odamlarga ham zarari tegishini «Yomon kishi bilmas gapning farqini, doimo yomonlar og'ayni xalqini», deb tasdiqlaydi[4.25].

Berdag insonlarni badxulq odamlar suhbatida bo'lmaslikka da'vat etadi: «Aqlli odam bilar so'zlarning farqin, xor qilmas unday yigitlar xalqini, bilar aql bilan yiroq



va yaqinni». Shoir dono, o'qimishli kishilar el orasida ko'payib, xalqni aql bilan idora qilib o'tirsa, vayronagarchilik, nohaqlikka o'rin qolmaydi, deb ta'kidlaydi.

Qur'oni Karimda ilmi va ilmsiz kishilar bir qatorda qo'yilmaydi. «Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi?! Darhaqiqat, faqat aql egalarigina eslatma olurlar» [5.459].

Berdaq ilmning turli-tuman sohalarini jamiyatning rivojlanishiga va ravnaqiga olib keladigan kuch deb bilib, uni egallashga chaqiradi. U ilm-fan va ma'rifat yordami bilan o'z davrining axloqiy muhitni sog'lomlashtirish mumkinligiga ishonadi. Shuning uchun ham Berdaq «Aqili kamil, ilimi zor, Bilimli el bolmaydi xor» (Aqli komil, ilmi zo'r, bilimli el bo'lmaydi xor), deb komillikni orzu qilgan odamni qadrlagan, bunga qarshilik qilgan har qanday odam va to'siqlarni qoralagan [4.41].

Berdaq yoshlarning etuk inson bo'lib shakllanishi uchun zarur tarbiya turlari: aql-bilimlilik, go'zallikni sevishga tarbiyalash deb ko'rsatdi va talim va tarbiya birga olib borilishini maqulladi. Berdaqning tushunchasida aql yutug'i insonni tamonlama muvaffaqiyatga erishtiradi, deb hamma narsani aql bilan o'ylab, hal qilishni talab qilgan. SHoirning aqliy tarbiya haqidagi qarashlari uning dunyoni bilish bilan chambarchas bog'liq.

Qoraqalpoq mumtoz adabiyoti vakillaridan yana biri, Ajiniyoz (1824-1878) lirikasi dunyoga mashhur Sharq lirikasining, yaniy Umar Hayyom, Hofiz kabii buyuk lirik shoirlarning asarlari bilan qator turadigan lirika.

Ajiniyozning «bu dunyoning ko'rki odam bolasi, u odamning ko'kga etar nolasi» deb tasiqlashida juda katta falsafiy tafakkur yotadi. Odamning nolasining ko'k osmonga (Allohga) etishini Ajiniyoz jon orqali bog'lanadi degan xulosaga keladi [5.45].

Bunday xulosa yaniy jon haqidagi qarashlar dunyo falsafasining va buyuk allomalarning fikrlarida ham aytilgan Masalan, qadimgi Hindiston falsafasida, olamdagi barcha hodisalar, voqealar, shu jumladan, inson xulqatvori, xatti-harakati ham olam bilan bog'liq, doimo o'zgarib turadi. Olamdagi, odamdagi o'zgarishlarning asosida shaxssiz vujud yotadi. Shaxssiz vujud esa dunyoviy jon bilan individual jonning birligidan iborat. Dunyoviy jon nafaqat olamning, balki odamning ham ruhiy asosini tashkil etadi [7.9].

Ajiniyozning aksariyat asarlarida ma'naviy rivojlanish masalalarini insonlarning oddiy hayotidagi xulq-atvorlari bilan bog'laydi va insonlar xulq-atvorini to'g'ri yo'nalishga soladigan hayotiy misollarni keltirib ko'rsatadi. Inson axloqining to'g'ri namunalari uning quyidagi she'riyatida yaqqol ifodalab o'tilgan.



«Yaxshini fahim ayla so‘zlagan so‘zdan,
Yamonning farqi yo‘q ko‘z birla yuzdan,
Odotsiz-arqonsiz biyfahim qizdin,
Xushroy bo‘lmoq bilan janon bolurmi?» deydi [8.59].

Odamzot talab qiladigan insonning ajoyib axloqiy sifatining biri to‘g‘rilik. Tug‘ri so‘z odamga va xalqqa ishonchini mustahkamlaydiganini yaxshi tushingan Ajiniyoz Mirzo Qo‘jbonga shunday deb tarif beradi:

Yalg‘onni rost qilib aytmagan,
Bosh kessa ham tug‘ri yo‘ldan qaytmagan,
Nomi qoraqalpoq ellerim bordi [8.18].

Ajiniyoz asarlari juda chuqur mantiqiy asosga ega. Ular, ayniqsa, insonlarda falsafiy mushohadani shakllantirishda katta o‘rin tutadi. Alloma bu mo‘‘jaz she‘rlar orqali umrning mohiyati, qismat bitiklari haqidagi o‘ylarini, hayrat-u iqrorlarini to‘kib soladi. Ayniqsa, u insonga xos bo‘lgan mardlik sifatiga alohida e‘tibor qaratadi. Insondagi bu axloqiy fazilat haqida shunday deb yozadi:

Qoraqalpoq mumtoz adabiyoti bakillari Kunxo‘ja, Berdaq, Ajiniyoz ijodining asosi bo‘lgan mehnatsevarlik, vatanparvarlik, ilm-ma‘rifatga intilish, kamtarin, mehrlil bo‘lish, xalq farovonligi uchun olib borilgan g‘oyalarni yosh avlod orasida keng targ‘ib-tashviq qilish, oliy o‘quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari maxsus seminarlar tashkillashtirish, ularning hayoti va ijodini har tomonlama o‘rganib, adabiy merosini keyingi avlodlarga yetkazish lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Толстов С.П. Великая победа Ленинско-Сталинской национальной политики. №1. «Советская этнография», 1950. -С. 8.
2. Kúnxoja. El menen. Tańlamalı qosıqlar toplamı. -Nókis: «Qaraqalpaqstan», 1984 –B. 40.
3. Kúnxoja. El menen. Tańlamalı qosıqlar toplamı. -Nókis: «Qaraqalpaqstan», 1975 –B. 12.
4. Berdaq. Saylandı shıǵarmaları. (Qayta basılıım). –Nókis. “Bilim”, 2019. –B. 179.
5. Kur’oni karim ma’nolarining tarjiması. “Zumar” surası. - B. 459.
6. Bazarbaev J. Ájiniyaz shayırdıń dúnyaǵa kóz qaraları haqqında filosofıyalıq ocherk. Nókis, -Bilim. 2019., 51-bet.
7. Choriyev A. Inson falsafası. —T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. –B. 9.
8. Ájiniyaz. Tańlamalı shıǵarmaları. –Nókis. «Qaraqalpaqstan», 1994. –B. 59.